



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

QANDOLATCHILIK TERMINLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Dilnoza XAYDAROVA*

Annotatsiya

Mazkur maqolada qandolatchilik sohasi bilan bog'liq terminlarning lingvistik xususiyatlari o'rganilgan. Unda shirinliklar, qandolat mahsulotlari va ularning tayyorlanish jarayonlariga oid atamalar tarixiy manbalar hamda zamonaviy nutqiy muomaladagi qo'llanilishi asosida tahlil qilinadi. Qandolatchilik terminlari fonetik, morfologik va semantik jihatdan ko'rib chiqilib, xalq og'zaki ijodida, adabiy manbalarda va amaliy nutqda uchraydigan variantlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ayrim terminlarning boshqa tillardan kirib kelishi, ularning o'zbek tilida moslashuv jarayoni ham ko'rsatib beriladi. Maqolada terminlarning milliy leksik fondagi o'rnini va ular orqali xalqning madaniy-maishiy hayoti, urf-odatlarini ham namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: qandolatchilik, termin, shirinlik, lingvistik tahlil, semantika, leksik fond, madaniy-maishiy hayot.

Linguistic Analysis of Confectionery Terminology

Abstract

This article examines the linguistic features of confectionery-related terminology. It analyzes terms connected with sweets, confectionery products, and their preparation processes on the basis of historical sources and their use in contemporary speech. Confectionery terms are studied from phonetic, morphological, and semantic perspectives, with attention paid to their variants found in folklore, literary texts, and practical communication. The article also highlights the borrowing of certain terms from other languages and their adaptation within Uzbek. Furthermore, the role of these terms in the national lexical fund is emphasized, reflecting the cultural and everyday life traditions of the people.

Keywords: confectionery, terminology, sweets, linguistic analysis, semantics, lexical fund, cultural and everyday life.

Kirish

Har qanday millatning madaniy taraqqiyotida tilning o'rnini beqiyosdir. Til faqatgina aloqa vositasi emas, balki u jamiyatning ilmiy, texnik va madaniy yutuqlarini ifodalovchi asosiy ko'zgudir. Shu ma'noda, har bir sohaning terminologik tizimi uning ilmiy darajasi va amaliy rivojini belgilab beradi. Terminlar til

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Samarqand viloyati hududiy bo'linmasi, dilnozamatqulovna@gmail.com.

boyligining maxsus qatlamini tashkil etib, ular orqali fan va texnika yutuqlari nomlanadi, yangicha tushunchalar ifodalanadi va ilmiy tafakkur shakllanadi.

Har bir sohaning terminologiyasini puxta bilish va uni to'g'ri qo'llash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Chunki muayyan sohaga oid terminlarni mukammal o'zlashtirmasdan, shu sohaga tegishli matnlarni tushunish, ilmiy sharhlash yoki tarjima qilish qator muammoli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin (Usmonov, 2017, 25-bet). Terminlar adabiy tilning ajralmas qismini tashkil etib, ular orqali fan, texnika, san'at va kasbiy faoliyatning turli jabhalarida aniqlik hamda ixchamlik ta'minlanadi (Abduazizov, 2019, 48-bet).

"Termin" so'zi lotincha *terminus* — "chegara" ma'nosini anglatadi (G'ulomov, 2020, s.12). Tilshunoslikda termin muayyan fan yoki kasb doirasida aniq belgilangan tushunchani ifodalovchi so'z sifatida ta'riflanadi. Terminologiya esa shu terminlar yig'indisi, ularning shakllanishi, qo'llanilishi va rivojlanishini o'rganadigan sohadir (Karimova, 2021, 34-bet). Ba'zi manbalarda "termin" va "atama" tushunchalari sinonim sifatida berilgan bo'lsa-da, ularning farqlari ham mavjud. Jumladan, "atama" so'zi o'zbek tilshunosligida 1989-yilda davlat tili maqomi belgilanganidan keyin keng qo'llanila boshlagan (Toshpo'latov, 2018, 56-bet). Vaqt o'tishi bilan ayrim atamalar jamoatchilik nutqiga singib, oddiy so'z sifatida ishlatilib ketishi ham mumkin.

Ilm-fan va texnika rivojlangani sari terminologiya ham boyib bormoqda. Yangi tushunchalar va ularning nomlari o'rtasidagi aloqadorlik lingvistik, kognitiv, ontologik hamda diskursiv usullar yordamida tadqiq qilinadi (Sayfullayeva, 2022, 77-bet). Har qanday tilning so'z boyligini umumiy va maxsus lug'atlar orqali o'rganish mumkin. Maxsus lug'atlar esa odatda uch guruhga ajratiladi: terminlar, nomenklatura va professionalizmlar (Rustamov, 2019, 91-bet).

Qandolat san'ati ham o'ziga xos terminologik tizimga ega. Unda texnologik jarayonlarga oid maxsus atamalar, mahsulot turlari, mintaqaviy nomlanishlar uchraydi. Bu terminlar lug'aviy ma'nosi, semantik diapazoni, fonetik shakli va shakllanish mexanizmlari bilan lingvistik tahlilga loyiqdir. Shu bilan birga, qandolat atamalari o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan shirinlik tayyorlash madaniyati, urf-odatlar va mintaqaviy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi (Hasanov, 2023, 64-bet). Demak, qandolat terminlarini lingvistik jihatdan o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot qandolatchilik sohasi bilan bog'liq terminlarning shakllanishi, ularning semantik xususiyatlari hamda lingvistik tasnifini o'rganishga qaratilgan bo'lib, u leksik-semantik, etimologik va qiyosiy tahlil usullariga tayandi. Tadqiqot jarayonida bir necha manbalar va metodlardan foydalanildi.

Ma'lumotlar yig'ish jarayonida turli manbalar va resurslardan foydalanildi. Samarqand shahri va Buxoro viloyatidagi hunarmandlar bilan suhbat olib borildi. Shuningdek, O'zbekiston va chet el nashrlarida chop etilgan kulinariya darsliklari hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi. Tadqiqot davomida bir nechta tahlil metodlariga murojaat qilindi. Leksik-semantik tahlil yordamida terminlarning ma'nodosh, qarama-qarshi va ko'p ma'noli qatlamlari aniqlab chiqildi. Etimologik usul orqali esa terminlarning kelib chiqishi, jumladan arabcha, forsha, turkiy, ruscha va inglizcha manbalarga borib taqalishi o'rganildi. Qiyosiy metod yordamida o'zbek tilidagi qandolatchilik terminlari rus va ingliz tillaridagi atamalar bilan solishtirildi. Statistik metod qo'llanib, terminlarning ishlatilish chastotasi hisoblandi va ularning zamonaviylik darajasi baholandi. Shu tariqa, tadqiqot jarayonida yig'ilgan materiallar har tomonlama tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalarga erishildi.

Tadqiqot jarayoni.

Birinchi bosqichda qandolatchilikka oid terminlar yig'ilib, ularning umumiy ro'yxati tuzildi. Ikkinchi bosqichda terminlar semantik guruhlariga ajratildi: mahsulot nomlari, tayyorlash jarayoni bilan bog'liq atamalar, uslubiy-metaforik terminlar. Uchinchi bosqichda terminlarning o'zbek tilidagi ishlatilishi rus va ingliz tilidagi muqobillari bilan qiyoslab o'rganildi.

Mezonlar.

Tadqiqotda terminlarni o'rganishda quyidagi mezonlarga asoslanildi:

- Terminlarning semantik aniqligi va tor doiradagi qo'llanishi.
- Terminlarning kelib chiqish manbalari.
- Terminlarning amaliy qo'llanish chastotasi.
- O'zbek tilida ularning milliy-lisoniy o'ziga xosligi.

Tadqiqot chegaralari

Mazkur tadqiqot faqat qandolatchilik sohasiga oid terminlar bilan chegaralandi. Umumiy kulinariya, oshxona va restoran sohasi terminlari tahlilga kiritilmadi. Shuningdek, og'zaki xalq atamalari va dialektal variantlar ham qisman chetda qoldirildi.

Natijalar

Tadqiqot natijasida qandolatchilik terminlari o'zbek tilida shakllanishi, ma'no qatlamlari va qo'llanish xususiyatlari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Quyidagi muhim xulosalarga erishildi:

O'zbek tilidagi qandolatchilik terminlarining katta qismi o'zbekcha ildizli so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ularning sezilarli qismi arab, fors, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan atamalardan iborat ekanligi aniqlandi. Masalan, *shakar*, *novvot*, *holva* singari so'zlar tarixiy qatlamga oid bo'lsa, *keks*, *krem*, *desert* kabi terminlar rus va ingliz tillari orqali kirib kelgan.

1. Semantik guruhlanish. Terminlar semantik jihatdan uch asosiy guruhga ajratildi:

a) Mahsulot nomlari (*qand, konfet, marmalad, iris* va boshqalar).

b) Tayyorlash jarayoniga oid atamalar (*qiyomlash, aralashma, pishirish, bezash* va h.k.).

c) Metaforik va reklama tusidagi terminlar (*shirin hayot, asaldek totli, qandday suyakli* kabi).

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi qandolatchilik terminlari lingvistik jihatdan ko'p qatlamli va rang-barang xususiyatlarga ega. Ushbu holat boshqa soha terminologiyalarida kuzatilgan jarayonlarga o'xshash bo'lsa-da, qandolat san'ati terminlari o'zining madaniy, ijtimoiy va reklama omillari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, **etimologik jihatdan** o'zbek qandolatchilik terminlari ikki asosiy qatlamdan iborat: mahalliy ildizli so'zlar va tashqi o'zlashmalar. Mahalliy so'zlar (masalan, *shakar, novvot, holva*) xalqning ko'p asrlik turmush tarzi va urf-odatlarini ifodalasa, rus va ingliz tili orqali kirgan terminlar (*keks, krem, desert, kapkeyk*) zamonaviy global ta'sirning kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon boshqa turkiy tillarda ham (qozoq, ozarbayjon, turk tillarida) kuzatiladi, biroq o'zbek tilida arabcha-forscha qatlamning salmoqli bo'lishi uni ulardan farqlaydi.

Ikkinchidan, **semantik guruhlanish** qandolatchilik terminlarining o'zbek tilida keng ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Mahsulot nomlari xalq iste'moli uchun asosiy birlik bo'lsa, texnologik jarayon atamalari asosan kasbiy doiradagina faol ishlatiladi. Reklama va metaforik birliklar esa sohada emotsional va estetik qiymat kasb etadi. Bu holat terminlarning faqat lingvistik emas, balki pragmalingvistik funksiyasini ham ko'rsatadi.

Uchinchidan, **natijalarning amaliy talqini** shuni ko'rsatdiki, qandolatchilik terminlari kundalik nutqda tobora ko'proq qo'llanmoqda. Reklama, ommaviy axborot vositalari va internet matnlarida zamonaviy terminlarning tez singib ketishi kuzatildi. Bu jarayon bir tomondan tilning boyishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan begona unsurlar ko'payishi xavfini ham tug'diradi. Shu bois terminlarni tizimli ravishda tartibga solish va ularning milliy muqobillarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

To'rtinchidan, **nazariy ahamiyat** nuqtayi nazaridan tadqiqot qandolatchilik terminologiyasini lingvistik birlik sifatida o'rganishning samaradorligini ko'rsatadi. Terminlar nafaqat aniq tushunchani ifodalash, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni ham aks ettirish imkonini beradi. Shu ma'noda, ularni semantik, etimologik va pragmalingvistik jihatdan tadqiq etish o'zbek terminshunosligiga yangi ilmiy ma'lumotlar qo'shadi.

Umuman olganda, muhokama qismi natijalarni kengroq kontekstdagi tilshunoslik yutuqlari bilan uyg'unlashtiradi. Tadqiqot o'zbek qandolatchilik

terminlari boshqa soha terminologiyalari bilan bir qatorda rivojlanayotganini va ular orqali milliy tilning leksik boyligi yanada kengayayotganini isbotlab berdi.

Muhokama

Qandolat jarayonida ishlatiladigan terminlar bir necha guruhga bo'linadi. Avvalo, ishlab chiqarish vositalari va jarayonlariga oid atamalar uchraydi. Masalan, **qozon, sovutkich, muzlatkich, elak, g'alvirlash, quritish, qog'ozlash** kabi terminlar mahsulotni tayyorlash yoki uni saqlash jarayonini bildiradi. Bu atamalar asosan texnologik vositalar bilan bog'liq. Shuningdek, **qiyom, zuvalalash, qoliplash, donalab qolli, uzilish, uzilmaslik** kabi terminlar qandolat massasi bilan ishlash jarayonini ifodalaydi. Bu so'zlar xalq tilida ham uchraydi, biroq qandolat jarayonida ularga aniqroq, tor doiradagi ma'no yuklangan.

Tarkibiy qismlar va ingredientlarga oid terminlar esa boshqa bir qatlamni tashkil etadi. **Glyukoza, shakar, limon kislotasi** kimyoviy termin sifatida ilmiy manbalardan o'zlashgan bo'lsa, **kunjutlash, bezaklash, baland bo'lmoq** kabi iboralar xalqona shaklda paydo bo'lgan. Masalan, *balan bo'lli* Buxoro atamasi bo'lib, qiyomning pishish darajasi yoki mahsulotning mustahkamligiga ishora qiladi. Xuddi shuningdek, *donalab qolli* iborasi ham xalq tili unsurlaridan bo'lib, qiyomning kristallanish jarayonini ifodalaydi.

Qandolat terminologiyasining muhim qismini mahsulot nomlari tashkil etadi. O'zbek qandolatida o'nlab mahsulot turlari mavjud bo'lib, ularning nomlanishi ko'pincha shakl, rang, tayyorlash usuli yoki hududiy xususiyatlarga qarab belgilanadi. Masalan, **halvo** arabcha *halwā* so'zidan o'zlashgan bo'lib, xalqimizda turli ko'rinishlari uchraydi: *soch halvo, til halvo, sobina halvo, labz halvo, mak halvo, marmalad, saqich halvo*. Ayrimlari tayyorlash usuli bilan farqlanadi, masalan, *yaxaki halvo* yuqori haroratda pishiriladi, *sobina halvo* esa nisholdaning quyuqroq ko'rinishi hisoblanadi. Yoki *til halvo* mahsulotning shakliga qarab nomlangan. **Parvardaning** ham turli xillari bor: *payvandi, tuyachali, sharikcha, vodiy parvarda, sariq parvarda*. Bu nomlar mahsulotning shakli, rangi va tayyorlanish texnologiyasi asosida yuzaga kelgan. **Navvot** esa forscha *navāt* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek xalqida diniy va marosimiy shirinlik sifatida qadrlanadi. Uning *pushtak, yurak, qaymoq, cho'pcha* kabi turlari mavjud.

Qandolat terminlarida fonetik va hududiy farqlar ham kuzatiladi. Masalan, **list** atamasi Buxoro va Samarqandda qand qatlamini ifodalasa, boshqa hududlarda *plast* shaklida qo'llanadi. **Gardish** atamasi ham Buxoro va Samarqandda mahsulotni bezash jarayoni yoki qog'oz belbog'ini anglatadi, Xorazmda doira shaklini bildiradi. Bu kabi farqlar terminlarning xalq tili bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Qandolat terminologiyasini o'rganishda muammolar ham mavjud. Avvalo, sinonimlarning ko'pligi va dialektal farqlar aniqlikni qiyinlashtiradi. Masalan, *sobina*

halvo ayrim hududlarda *nisholda quyuq* deb ham ataladi. Bu esa terminlarning normativ shaklini belgilash zaruratini ko'rsatadi. Shuningdek, atamalar hali maxsus lug'atlarda to'liq qayd etilmagan, natijada yozma manbalarda bir xillik kuzatilmaydi. Tarjima masalasi ham murakkab: masalan, *donalab qolli* yoki *balan bo'lli* kabi iboralarning boshqa tillarda aniq ekvivalenti yo'q, ularni tavsifiy tarzda tarjima qilishga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, qandolat terminlari xalqimizning madaniy hayotini ham aks ettiradi. Masalan, Buxoro an'analarida *halvoyi gardish* kelinlarga olib boriladigan marosimiy shirinlik hisoblanadi. Bu holat terminlarning faqat texnologik emas, balki etnolingvistik jihatdan ham o'rganilishini talab qiladi. Samarqandda esa har bir marosimning o'z shirinligi bor.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek qandolat terminologiyasi xalq tili, chet tillardan kirib kelgan unsurlar va kasbiy jarayonlarga oid atamalarning o'ziga xos uyg'unligidan tashkil topgan. Bu terminlarni tizimlashtirish, ularning etimologiyasini aniqlash, fonetik va semantik xususiyatlarini izohlash lingvistika uchun ham, milliy madaniyatni asrash uchun ham muhimdir.

Xulosa

Qandolatchilik terminlari o'zbek tili leksikasida muhim qatlamni tashkil etadi. Ularning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va qo'llanish jarayonlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va etnolingvistika uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mazkur terminlarning katta qismi arab, fors-tojik, turkiy va rus tillaridan o'zlashgan bo'lsa-da, ular o'zbek tilining fonetik va grammatik tizimiga moslashib, milliy leksikaning ajralmas bo'lagiga aylangan.

Qandolat mahsulotlari nomlari semantik jihatdan mahsulot turi, tayyorlash usuli, shakli, ta'mi va marosimiy vazifasiga qarab guruhlanadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va marosimlarida qo'llanilishi, hududiy-dialektal farqlari va zamonaviy sanoat tili ta'siri ularning rang-barangligini ta'minlamoqda.

Shu bilan birga, terminologiyada sinonimlarning ko'pligi, turli manbalarda bir xil atamaning turlicha yozilishi, dialektal tafovutlar hamda izohli lug'atlardagi bo'shliqlar kabi muammolar mavjudligi aniqlangan. Bu esa qandolat terminlarini tizimlashtirish, yagona me'yoriy izohli lug'at yaratish va ilmiy muomalada barqaror qo'llanishini ta'minlash zaruratini ko'rsatadi.

Umuman, o'zbek qandolatchilik terminlari xalqning qadimiy urf-odatlarini, madaniy merosi va iqtisodiy faoliyatini o'zida mujassam etib, til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritib beradi. Mazkur qatlamni chuqur tadqiq etish o'zbek tilining lug'at boyligini ilmiy asosda boyitish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish hamda terminologiyani xalqaro miqyosda standartlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abduazizov A. (2019) *O'zbek tilida terminlar tizimi va ularning rivoji*. Toshkent: Universitet.
- Karimova N. (2021.) *Terminologiya masalalari: nazariya va tajriba*. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
- Saidova, N. (2023). *Tilshunoslik va terminologiya muammolari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
- Usmonov A. (2017) *Terminologiya nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya.
- Саидова, Н. (2021). *Терминологик тадқиқотлар асослари*. Тошкент: Университет нашриёти.
- Sodiqov, A. (2019). *“O'zbek tilida terminlarning shakllanishi va rivoji.” // Filologiya masalalari*.
- Toshpo'latov R. (2018.) *Atamalar va terminlar izohida yangicha yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston.
- G'ulomov M. (2020) *Tilshunoslik asoslari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
- Хожиёв, А. (2007). *Терминология назарияси ва амалиёти*. Тошкент: Fan.
- Юсупов, У. (2015). *“Лексикологияда термин ва атамаларнинг ўрни.” // Ўзбек тили ва адабиёти*.